

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
2024-2025 o‘quv yili
I-chorak
choraklik summativ baholash
test savollari.
7-sinf
1-variant

1-20 matematika, 21-35 ona tili va adabiyot, 36-45 biologiya.
 (B-bilish; Q-qo‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

O‘quvchi F.I.SH).....

1. (B 1,5 ball) Berilgan qavsli ifodalarda qavslarni oching va to‘g‘ri javoblarni mos keltiring.


I. $+(a + b - c)$	A. $-a + b + c$
II. $-(a - b - c)$	B. $a - b + c$
III. $-(-a + b - c)$	C. $-a + b - c$
	D. $a + b - c$

- A) I-D, II-B, III-A B) I-D, II-A, III-B
 C) I-A, II-B, III-C D) I-A, II-C, III-B

2. (B 1,5 ball) 12800000 sonini standart shaklda yozing.

- A) $1,28 \cdot 10^7$ B) $1,28 \cdot 10^6$ C) $128 \cdot 10^5$ D) $12,8 \cdot 10^6$

3. (B 1,5 ball) Berilgan rasmdan foydalanib, a to‘g‘ri chiziqqa tegishli, lekin b to‘g‘ri chiziqqa tegishli bo‘lmagan nuqtalarni toping.



- A) B va C B) A, O va E C) D D) A va E

4. (B 1,5 ball) Quyidagi jadvalda burchaklar va burchak turlari nomlari ketirilgan. Burchaklarni kattaligiga qarab ularning turlari mos keltirilgan. Quyidagi tasdiqlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

№	Tasdiqlar	to'g'ri	noto'g'ri
1	145° - o'tmas burchak		
2	88° - o'tmas burchak		
3	90° - to'g'ri burchak		

- A) to'g'ri, noto'g'ri, noto'g'ri; B) noto'g'ri, to'g'ri, to'g'ri;
 C) to'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri; D) noto'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri;

5. (Q 2 ball) Algebraik ifodaning berilgan sonlarda qiymatini toping.

$$c - 3ab + bc; \quad a = -1; b = 3; c = -2$$

- A) 8 B) -1 C) 1 D) -9

6. (Q 2 ball) Yo'lovchi qishloqdan chiqib, shahar tomon jo'nadi. U a kilometr piyoda yurganidan keyin avtobusga o'tirdi va avtobusda t soatda shaharga yetib keldi. Agar avtobus 60 km/h tezlik bilan harakat qilgan bo'lsa, qishloq bilan shahar orasidagi S masofani toping.

- A) $S = (a + 60)t$ B) $S = a + 60t$ C) $S = at + 60$ D) $S = 60t - a$

7. (Q 2 ball) Hisoblang: $\frac{2^{17} \cdot 3^{41}}{2^{15} \cdot 3^{43}}$

- A) $\frac{4}{9}$ B) $\frac{4}{3}$ C) $\frac{2}{9}$ D) $\frac{2}{3}$

8. (Q 2 ball) 27^{24+n} soni 3^{69+3n} sonidan necha marta katta?

- A) 27 B) 9 C) 3 D) 81

9. (Q 2 ball) Birhadni standart shaklga keltiring

$$abc^2 \cdot ab^2c \cdot 5abc$$

- A) $5a^3b^3c^4$ B) $5a^4b^4c^4$ C) $5a^3b^4c^5$ D) $5a^3b^4c^4$

10. (Q 2 ball) Qavslarni oching va o'xshash hadlarni ixchamlang:

$$2a + 3(4a - 2b) - 2(3b - a)$$

- A) $16a + 12b$ B) $16a$ C) $12a - 12b$ D) $16a - 12b$

11. (Q 2 ball) Qavslarni oching va o'xshash hadlarni ixchamlang:

$$(6x^3 + 7x^2) - (-9x^3 + x^2) - (-10x^3 - 4x^2)$$

- A) $15x^3 + 10x^2$ B) $25x^3 - 10x^2$ C) $25x^3 + 10x^2$ D) $5x^3 + 5x^2$

12. (Q 2 ball) Ko'phadlarni ko'paytiring:

$$(2a + 3b)(4a^2 - 6ab + 9b^2)$$


- A) $8a^3 - 27b^3$ B) $8a^3 + 27b^3$ C) $8a^3 + 12ab + 27b^3$ D) $8a^3 + 12ab$

13. (Q 2 ball) Noma'lum ko'paytuvchini toping:

$$35x^2 + 21x - 10x - 6 = (5x + 3) \cdot (?)$$

- A) $(7x + 2)$ B) $(7x - 2)$ C) $(7 - 2x)$ D) $(7 + 2x)$

14. (Q 2 ball) AB , BC , CD va DE kesmalar o'zaro teng (rasmga qarang). Agar $AD = a$ bo'lsa, AE kesma uzunligi nimaga teng bo'ladi?



- A) $\frac{a}{3}$ B) $4a$ C) $\frac{4a}{3}$ D) $\frac{3a}{4}$

15. (Q 2 ball) Agar qo'shni burchaklarning biri ikkinchisidan sakkiz marta katta bo'lsa, bu burchaklar ayirmasini toping.

A) 140° B) 20° C) 160° D) 120°

16. (Q 2 ball) Soat mili 75 minutda necha gradusga buriladi?

A) $37,5^\circ$ B) 30° C) 45° D) $32,5^\circ$

17. (Q 2 ball) Quyidagi tasdiqlar ichidan noto'g'risini toping.

A) Agar ikki burchak umumiy tomonga ega bo'lsa, ular har doim ham qo'shni burchaklar bo'lmaydi

B) Bitta to'g'ri chiziqqa perpendikulyar bo'lgan ikki to'g'ri chiziq o'zaro kesishmaydi

C) To'g'ri chiziqda yotmagan nuqtadan shu to'g'ri chiziqqa bittadan ortiq perpendikulyar to'g'ri chiziq tushirish mumkin emas.

D) Vertikal burchaklarning bissektrisalari o'zaro perpendikulyar bo'ladi

18. (Q 2 ball) Uzunligi 9 cm bo'lgan AB kesma berilgan. AB nurda shunday C nuqta joylashganki, $AC + BC = 11$ cm tenglik o'rinli bo'ladi. C nuqtani joylashgan o'rnini toping.

A) C nuqta A va B nuqtalar orasida

B) C nuqta AB nurda B nuqtadan keyin 1 cm uzoqlikda

C) C nuqta AB nurda B nuqtadan keyin 0,5 cm uzoqlikda

D) tenglik o'rinli bo'ladigan qilib C nuqtani joylashtirib bo'lmaydi

19. (M 3 ball) $8^{19} \cdot 5^{55}$ ko'paytma necha xonali son bo'ladi?

A) 54 xonali B) 55 xonali C) 56 xonali D) 58 xonali

20. (M 3 ball) Soat 8 dan 18 minut o'tgan vaqt (8:18) da soatning soat va minut millari orasidagi burchakni toping.

A) 141° B) 132° C) 138° D) 144°

21. (B 2 ball) To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

A) daxanaki, muloqat, suyiste'mol, itelekt

B) suiiste'mol, tafakkur, muloqot, mulohaza

C) dahanaki, intellekt, tafakur, intirnet

D) bahtsizlik xissi, videolavxa, namayon

22. (Q 2,8 ball) -sa qo'shimchasi istak-xohishni ifodalaydi (fe'lning munosabat shakli). Ushbu fikrga mos keladigan gap keltirilgan qatorni aniqlang.

A) Til yolg'on so'zlashni boshlasa, ko'zlarga boq, ko'zlar aldamaydi.

B) Bugun tog'amdan biror xabar kelsa kerak, ko'nglim sezyapti.

C) Tog'amdan maktub kelsa edi, kelinoyimning ham chehrasi ochilardi.

D) Ular qutqarish maktubini bitgan bo'lsa, biz orzularimiz haqida bitdik.

23. (Q 2,8 ball) Ushbu gapdan fonetik hodisalarga uchragan so'zlarni aniqlang

Manmanligi ummondan o'tkazib qo'ymoqchi, oyog'i esa ariqdan ham o'tkaza olmaydi.

A) oyoq+i – oyog'i, ariq+dan – arig'dan

B) manmanlik+i – mammanligi, ariq+dan – arig'dan

C) o'tkaza olmaydi – o'tkazolmaydi, ariq+dan – arig'dan

D) manmanlik+i – manmanligi, oyoq+i – oyog'i

24. (Q 2,8 ball) Olmoshlarning qo'llanishi nutqiy qisqalikka va o'rinsiz takrorlarning oldini olish uchun xizmat qilishiga misol bo'la oladigan gap keltirilgan qatorni aniqlang.

A) Bola to'lqinlar ustida qalqib turgan nimaningdir qorasini ko'rib qoldi. To'lqinlar uni qirg'oqqa chiqarib tashlashini kutdi.

B) Bola to'lqinlar ustida qalqib turgan nimaningdir qorasini ko'rib qoldi. To'lqinlar sirli narsani qirg'oqqa chiqarib tashlashini kutdi.

C) “Kapitan Grant bolalari”ni o‘qib bo‘lgach, biz ham kitob qahramoni kabi maktub yozdik.
D) To‘g‘ri, asar qahramoni qutqarish maktubini bitgan edi, biz esa maktubda orzularimizni aks ettirdik.

25. (Q 2,8 ball) She‘riy matnda qo‘llangan son so‘z turkumiga oid so‘zlarning qaysi biriga jamlovchi son qo‘shimchasi qo‘shilsa, tovush o‘zgarish hodisasi sodir bo‘ladi?

Bir raqamlar boshiman, derdi,
To‘qqiz zo‘rdek ko‘ksini kerdi.
Yetti esa: “sirliman”, dedi,

Olti undan qolishmas edi.
Sakkiz, besh, to‘rt, ikki hamda uch,
Maqtandilar ne so‘z bo‘lsa duch...

A) sakkiz, besh, to‘rt

B) yetti, olti, ikki

C) ikki, uch, olti

D) besh, to‘rt, ikki

26. (B 2 ball) Qo‘shma sifatlar qatorini aniqlang.

A) tog‘olcha, qo‘lqop, sariq rang

B) ichakuzdi, qo‘ymijoz, rahmdil

C) achchiqtosh, qirg‘iyko‘z, toshbag‘ir

D) rangpar, oq-qora, shifobaxsh

27. (Q 2,8 ball) So‘zlarni bog‘lashga xizmat qilgan bog‘lovchi qo‘llangan gapni aniqlang.

A) Bilol qo‘lqopni kiydi hamda toza qorni dumaloqlab Alisherga, Alisher esa Bilolga otdi.

B) O‘zi bilan kompas, cho‘ntak chirog‘i hamda bir juft issiq qo‘lqoplarini oldi.

C) Sovuq havoga ko‘nikmagan kishilarga qiyin, ammo Bilol o‘zida yo‘q xursand edi.

D) Hayron bo‘lmang, do‘stim, chunki qorni faqat ekranda tomosha qilganman-da.

28. (Q 2,8 ball) Ushbu ajratib ko‘rsatilgan jumla orqali muallif yetkazmoqchi bo‘lgan fikr keltirilgan qatorni aniqlang.

Ertasi kuni Eldor chizgan rasmlarini maktab burchagiga ilib qo‘ydi. Rasmlarining birida **daraxtni quchib turgan katta va kichik qo‘llar**, daraxt yonida ikkita bolasi bilan Turon yo‘lbarsi, ortida mavjlanib turgan dengiz tasvirlangan edi. Ostiga esa “Sizni asray olamiz!” deb yozilgan edi.

A) Kattalar kichiklarni doimo qo‘llab-quvvatlab, ularga yordam qo‘lini cho‘zishlari kerak.

B) Yer yuzidagi barcha insonlar bir-birlari bilan ahil va hamjihat bo‘lib yashashlari kerak.

C) Tinchlik uchun qilinayotgan sa‘y-harakatlarga barchamiz o‘z hissamizni qo‘shamiz.

D) Tabiatni asrash hamda uni himoya qilish uchun barcha birdek harakat qilish kerak.

29. (B 2 ball) Keltirilgan ma‘lumotlar orasidan Normurod Norqobilovga tegishlilarini aniqlang.

1. Uning onasi har oqshom qorachiroq nurida ertak aytib berar, ertak boshlanishi bilan uy ichi kengayib, yorishib ketganday bo‘lar ekan.

2. O‘zbekistonning ko‘plab joylariga sayohat qilgan, hayvonot dunyosini o‘rgangan. Bu bilimlar keyinchalik hayvonlarga bag‘ishlangan asarlar yozilishiga turtki bergan.

3. “Oqbo‘yin” qissasida bir it taqdiri haqida hikoya qilinadi.

4. O‘z tarjimayi holida otasi va amakisi she‘rlar yozishgani haqida aytib o‘tgan.

A) Faqat 3

B) 1, 2, 3, 4

C) 2, 3, 4

D) 1, 2, 3

30. (Q 2,8 ball) Ernest Seton-Tomsonning “Lobo” asaridan keltirilgan badiiy parchalarni aniqlang.

1. Emishki, sher kuch-quvvatdan qolsa, burgut erkidan ajrasa, kaptar juftidan ajrasa, yuragi yorilib o‘lar ekan. Bu yirtqichning yuragi birvarakayiga uchta musibatni ko‘tara olarmikan?

2. Umrini yelga sovirib bo‘ldi, oxirgi damlarida juda qattiq pushaymon yesa-da, endi hech narsani o‘rniga qo‘yib bo‘lmaydi. Kech, juda kech...

3. Yuragi qalaydan yasalgan bo‘lsa ham u juda rahmdil edi, hatto nochorlarning ahvolini ko‘rib ko‘z yosh to‘kardi.

4. Qanchadan qancha qimmatbaho oyoq kiyimlar ichida yirtiq paypoqlar yashirin.

- A) 1, 3, 4 B) 2, 3 C) faqat 1 D) 1, 4

31. (Q 2,8 ball) Badiiy parchadan ajratilgan jumla haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

Ertasiga bo‘rilar murdasini ko‘rgani kelib, hayron bo‘lib qoldi. Bo‘rilar g‘unajinni pok-pokiza yeb, zahar sepilgan joylarini avaylab olib tashlabdi.

Arloni bo‘ri **podachilar ko‘ngliga dahshat solgandan dahshat soldi...**

- A) Lobo va to‘dasining har qanday hiyla-nayranglarga chap bera olishi, hech narsadan tap tortmay podaga qirg‘in solishi podachilarning ko‘ngliga g‘ulg‘ula soladi.
B) Lobo va uning to‘dasiga bas kela olmagan podachilarning podasini haydab, yaylovlarni tashlab ketishgani asar qahramoni – podachining yuragiga vahima solganligi haqida.
C) Bir podachining otarga hujum qilgan bo‘rilarga o‘q uzaman deb o‘z sherigini otib qo‘ygani haqidagi gap-so‘zlarni eshitgan podachilar yuragiga qo‘rquv oralaydi.
D) Bo‘ynoqning bo‘rilar to‘dasi bilan bo‘lgan to‘qnashuvda olgan jarohati hali tuzalmagani, buni sezgan bo‘rilarning esa otar oldida izg‘ib yurishi podachi ko‘ngliga dahshat solgan edi.

32. (Q 2,8 ball) “Chol va dengiz” qissasidan keltirilgan ushbu suhbat haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

– Ular meni yengib qo‘yishdi, Manolin, – dedi u. – Ular meni yengishdi.

– Ammo uning o‘zi seni yengolmabdi-ku, axir. Axir baliq seni yengmabdi-ku!

- A) Parchada cholning o‘ta og‘ir, samarasiz ovdan keyingi tushkun holati, Monolinning esa uning ko‘nglini ko‘tarish uchun bergan o‘rinli taskini aks ettirilgan.
B) Cholning dengizda ko‘rgan tushi bilan o‘z kulbasida ko‘rgan tushidagi voqealarga nisbatan bolaning qariyaga bergan tasallisi ifodalangan.
C) Baliqchilarning masxara va ermak qilishlariga chiday olmagan cholga nisbatan Monolinning hamdardligi aks ettirilgan.
D) Baliqning suyagini ko‘rib befarosatlarcha fikr bildirgan ofitsiantdan ko‘ngli ranjigan cholga Monolinning dalda bergani aks ettirilgan.

33. (Q 2,8 ball) “Chol va dengiz” qissasidan keltirilgan badiiy parcha(lar)ni aniqlang.

1. Inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo‘lib ketaverish uchun yaratilmagan.
2. Keksayganda kishi yolg‘iz o‘zi kimsasiz qolmasin ekan, – deb o‘ylardi u. – Ammo bu ko‘rgilikdan qochib qutulib bo‘larmidi.
3. Emishki, sher kuch-quvvatdan qol-sa, burgut erkidan ajrasa, kaptar juftidan ayrilsa, yuragi yorilib o‘lar ekan. Bu yirtqichning yuragi birvarakayiga uchta musibatni ko‘tara olarmikin?
4. U yana muk tushib uxlar, bola esa yonida o‘tirib uning uyqusini ardoqlardi... Uning tushiga arslonlar kirar edi.

- A) 3, 2, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 4 D) Faqat 3

34. (B 2 ball) Keltirilgan ma‘lumotlar orasidan Zulfiya ijodiga tegishlilarini aniqlang.

1. “Sog‘inib” she‘rida “Shu kunlarda bahorga zorman” misrasi har satr boshida takrorlangan.
2. Sog‘inch aks ettirilgan she‘rida lirik qahramonning tushkun kayfiyati va shu holatga zid tasvirlar ifodalangan.
3. Yana bir she‘rida bahor qishning yoqasidan tutib so‘roq qilganida qish yig‘lab chekingani aks ettirilgan ajoyib tashbeh qo‘llangan.
4. Satrlarida lirik qahramonning O, hayotning oliy butunligi! Insonga ufqlarni kengroq och” deya qilgan xitobi uchraydi.

- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 4 D) Faqat 3

35. (M 4 ball) Asqad Muxtor qalamiga mansub ushbu lirik parcha xulosasi haqidagi to‘g‘ri mulohazani aniqlang.

Gursullab yiqildi keksa qayrag‘och,
Cho‘chib milt-milt etdi tunda yulduzlar.

Tarvaqaylab yotar yo‘g‘on, yalang‘och,
Tuproqni o‘pirib chiqqan ildizlar...

Atay borib ko'rdim ertasi kuni.
Go'yo – chol, yonboshlab yotardi behol.

Tagida egilib, go'yoki uni
Suyab turar edi zaif bir nihol...

SA) Ushbu misralar orqali muallif hayotning o'tkinchiligini, bekorchi hoy-havaslariga berilmay ilm olish kerakligini ta'kidlayapti.

B) Muallifning ushbu satrlaridan keksa qayrag'och o'z o'rnini yosh niholga bo'shatib berishi aks ettirilgan.

C) Muallif ushbu misralari orqali keksa kishilarning tomirlarini tuproqni o'pirib chiqqan qayrag'och ildizlariga qiyoslayapti.

D) Ushbu misralar orqali muallifning "Biz boshlagan ishlarni yosh avlod davom ettiradi" degan mazmundagi hikmatini uqish mumkin.


36. (B 2,5 ball) Anvar yoz kunlari kechki payt hovuz bo'yida qurbaqalar soni ortishini e'tibor qildi. Anvarning ko'nikmalari qaysi tadqiqot metodiga mos keladi.

A. taqqoslash B. kuzatish C. tajriba D. ilmiy dalil

37. (B 2,5 ball) Ildizlarida ozuqa modda to'planadigan o'simliklarni aniqlang.


A. kartoshka, batat B. sholg'om, turp
C. piyoz, kartoshkagul D. sabzi, kartoshkagul

38. (B 2,5 ball) Yorug'lik mikroskopining optik qismlari qaysi raqamlar bilan ko'rsatilgan?



A. 3, 6 B. 4, 5 C. 2, 5 D. 1, 7

39. (Q 4,5 ball) Sxemada keltirilgan raqamlar ketma ketligida tillarang tobonbaliq sistematik birliklari to'g'ri berilgan javob variantini aniqlang.



A. xordalilar – umurtqalilar – shu'laqanotlilar – losossimonlar
B. xordalilar – umurtqalilar – plastinkajabralilar – karpsimonlar
C. umurtqalilar – xordalilar – shu'laqanotlilar – losossimonlar
D. xordalilar – umurtqalilar – shu'laqanotlilar – karpsimonlar

40. (Q 4,5 ball) Jadval ustunlarida berilgan tirik organizmlarga xos xususiyatlarni o'rganing. O'rgangan bilimlaringizdan foydalanib, jadval qatorlariga mos keluvchi protoktistalar vakillari nomi to'g'ri muvofiqlashtirilgan javob variantini aniqlang.

(- yo'q, + ha)

Organizm	Bir hujayrali	Ko'p hujayrali	Avtotrof	Saprofit	Parazit
1	+	-	+	-	-
2	-	+	+	-	-
3	+	-	+	+	-



A. 1 – xlomidomanada ; 2 – ulva; 3 – infuzoriya tufelka;

B. 1 – spirogira; 2 – ulva; 3 – infuzoriya tufelka;

C. 1 – xlorella; 2 – ulva; 3 – yashil evglena

D. 1 – spirogira; 2 – nemalion; 3 – oddiy amyoba;

41. (Q 4,5 ball) Sxemada noma'lum o'simlikka berilgan xususiyatlarni o'rganing. Quyida berilgan o'simlik rasmlaridan sxemaga mos keluvchi o'simlikni aniqlang.



A. 4- o'simlik

B. 1- o'simlik

C. 2- o'simlik

D. 3- o'simlik

42. (Q 4,5 ball) Diagrammada berilgan o'simliklar nomini o'qing. Raqamlar o'rniga umumiy xususiyatlar mos keluvchi to'g'ri ma'lumotlar muvofiqlashtirilgan javob variantini aniqlang.

a) urug'idan ko'payadi
 b) hayotiy shakli daraxt
 d) urug'kurtak tugunchada yetiladi
 e) ko'p yillik o'simlik
 f) urug' meva ichida yetiladi

A. 1 – f; 2 –b; 3 – a

B. 1 – e; 2 –d; 3 – a

C. 1 – e; 2 –a; 3 – d

D. 1 – a; 2 –b; 3 – d

43. (Q 4,5 ball) O‘rgangan bilimlaringiz asosida o‘simlik va hayvon hujayralari uchun berilgan umumiy xususiyatlarni aniqlang.

a) hujayra ichiga moddalar fagositoz usulda kiradi

b) yadro irsiy axborotni saqlaydi

d) qalin hujayra devori mavjud

e) ribosoma oqsillarni sintez qilad

f) hujayradagi suv miqdori hujayra shaklini belgilaydi

A. a, f

B. d, e

C. b, e

D. d, b

44. (Q 4,5 ball) Jadval qatorlarida va ustunlarida berilgan ma’lumotlarni tahlil qiling. Jadvalning qaysi qatorlarida o‘simlik va o‘tkazuvchi to‘qimalariga xos xususiyatlar muvofiq berilgan.

No	O‘simlik to‘qimalariga xos xususiyatlar	olma	archa
1	Suv o‘tkazuvchi nay hujayralari orqali tashiladi	ha	ha
2	Organik moddalar elaksimom nay hujayralari orqali tashiladi	ha	yo‘q
3	Suv o‘tkazuvchi traxeidlar orqali tashiladi	ha	yo‘q
4	Kambiy hujayralari o‘simlik organlarining eniga o‘shini ta’minlaydi	ha	ha


A. 1, 4

B. 2, 4

C. 1, 3

D. 2, 3

45. (M 5,5 ball) Ko‘rshapalaklarda tunda harakat qilishida yordam beradigan exolokatsiya deb ataladigan maxsus moslashuv mavjud. Rasmda ko‘rshapalaklarning ov qilish jarayonida exolokatsiyadan foydalanishi sxemasi berilgan. Ko‘rshapalaklarning ov qilish mexanizmini tushuntiruvchi javob variantini aniqlang.



A. Ko‘rshapalaklarning ko‘zlari rivojlanmagan, shuning uchun ochiq havoda past tovush chastotalari tarqatish orqali o‘ljani tutadilar

B. Ko‘rshapalaklar o‘lja eshitishi uchun juda baland, yuqori chastotali ultratovush to‘lqinlarini chiqaradilar.

C. Tovush chastotalari tarqatish qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘lja soni shuncha ko‘p bo‘ladi.

D. Yuqori chastotali tovushlar aks sado kabi o‘ljadan qaytib, ko‘rshapalakka eshitiladi



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI